

**IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHISH MASALASIDA
XALQARO MOLIVAVIY MEXANIZMLAR**

Aliyev Azizbek

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotasiya: maqolada iqlim o'zgarishiga moslashish masalasida xalqaro moliyaviy mexanizmlar, ya'ni Yashil iqlim jamg'armasi, Adaptatsiya jamg'armasining faoliyat yo'nalishlari, vazifa va funksiyalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishlari, Yashil iqlim jamg'armasi, Adaptatsiya jamg'armasi, issiqxona gazlari, iqlimga moslashtirish, vayron qilingan ekotizimlarni tiklash, Kioto protokoli, aholi salomatligi.

**МЕЖДУНАРОДНЫЕ ФИНАНСОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ
АДАПТАЦИИ К ИЗМЕНЕНИЮ КЛИМАТА**

Алиев Азизбек

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: в статье рассматриваются направления деятельности, задачи и функции международных финансовых механизмов, а именно Зеленого климатического фонда и Адаптационного фонда, в сфере адаптации к изменению климата.

Ключевые слова: Изменение климата, Зеленый климатический фонд, Адаптационный фонд, парниковые газы, адаптация к изменению климата, восстановление деградировавших экосистем, Киотский протокол, общественное здравоохранение.

**INTERNATIONAL FINANCIAL MECHANISMS FOR CLIMATE
CHANGE ADAPTATION**

Aliyev Azizbek

Master's student of Tashkent State University of Law

Abstract: *the article focuses on the activities, tasks and functions of international financial mechanisms for climate change adaptation, namely the Green Climate Fund and the Adaptation Fund.*

Keywords: *climate change, Green Climate Fund, Adaptation Fund, greenhouse gases, climate adaptation, restoration of destroyed ecosystems, Kyoto Protocol, public health.*

Iqlim o'zgarishi butun dunyo mamlakatlari oldiga nafaqat ekologik, balki moliyaviy strategiyalarni qayta ko'rib chiqish zaruratini ham qo'ydi. Bu o'zgarishlarga moslashish, issiqxona gazlarini kamaytirish, barqaror energetika tizimlarini joriy qilish va iqlimga chidamli infratuzilmalarni shakllantirish uchun juda katta moliyaviy resurslar zarur. Shu ehtiyojlarni qondirish maqsadida, xalqaro darajada huquqiy asosga ega bo'lgan moliyalashtirish tizimlari ishlab chiqildi. Ular, birinchi navbatda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida qabul qilingan **Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi asosiy konventsiya (UNFCCC)** orqali shakllangan.

Mazkur konventsiya 1992-yilda qabul qilingan bo'lib, uning asosiy maqsadi iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirish va xalqaro ekologik barqarorlikni ta'minlashdir¹. Bunda davlatlar orasidagi iqtisodiy tafovutlar e'tiborga olinib, rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan va zaif iqtisodiy tizimlarga ega davlatlarga moliyaviy yordam ko'rsatish majburiyati xalqaro huquqiy norma sifatida mustahkamlangan. Konventsiya doirasida moliyalashtirish birgina texnik yordam yoki infratuzilma qurilishi bilan cheklanmaydi. U keng ma'nodagi transformatsion moliyaviy yondashuvni o'z ichiga oladi — bunda ilmiy

¹ Ekologiya huquqi. Darslik. Usmonov M.B., Rustamboyev M.H., Xolmuminov J.T. va boshq. Mas'ul muharrir: M.B. Usmonov. Toshkent: TDYI, 2006. 78-91-b.

tadqiqotlar, texnologik yangilanishlar, xalqaro tajriba almashinuvi, innovatsion moliyaviy vositalar kiritilishi ta'minlanadi.

UNFCCC doirasida shakllantirilgan moliyaviy mexanizmlarning huquqiy asosini quyidagi prinsiplar tashkil qiladi:

- **“Tarixiy javobgarlik”** tamoyili: ya'ni, sanoatlashgan davlatlar, tarixan ko'proq ifloslantiruvchi bo'lganliklari sababli, ko'proq moliyaviy javobgarlikka ega.
- **“Farqlangan imkoniyat va ehtiyoj”** prinsipi: turli darajadagi davlatlar uchun teng emas, balki adolatli yondashuv zarur.
- **“Barqarorlik va oshkoralik”** tamoyili: ajratilgan mablag'larning yo'naltirilishida shaffof monitoring tizimi mavjud bo'lishi kerak.

Ushbu prinsiplar asosida iqlim bilan bog'liq moliyaviy yordam tizimi konventsiyaning bir necha bandlari orqali huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Jumladan, 4- va 11-moddalarda rivojlangan davlatlarning texnik, moliyaviy va ilmiy yordam ko'rsatish majburiyati aniq ko'rsatib o'tilgan. Mazkur moddalar iqlim muhofazasiga qaratilgan transmilliy hamkorlikni moliyaviy jihatdan ta'minlashni xalqaro majburiyat sifatida belgilaydi.

Konvensiya asosida tuzilgan moliyaviy mexanizmlar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. **Moliyaviy mexanizm kotibiyati** – UNFCCCning o'ziga xos moliyalashtiruvchi qismi bo'lib, yirik jamg'armalarni muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. U konvensiya qatnashchilari tomonidan har yili o'tkaziladigan konferensiyalarda (COP) tasdiqlangan yo'nalishlar bo'yicha mablag' taqsimlaydi².

² <https://unfccc.int/topics/climate-finance/the-big-picture/introduction-to-climate-finance>.

2. **Global muhit jamg'armasi (GEF)** – konventsioning rasmiy moliyaviy vositasi bo'lib, ekologik loyihalarni boshlang'ich bosqichda moliyalashtirish, texnik ekspertiza bilan ta'minlash, metodik yordam berish kabi funksiyalarni bajaradi.

3. **Texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash tarmog'i** – moliyalashtirish bilan birga texnologik yechimlarni yetkazish tizimidir. Bu tarmoq orqali innovatsion, energiya samarador va ekologik xavfsiz texnologiyalarni rivojlanayotgan mamlakatlarga joriy qilish uchun yordam ko'rsatiladi.

4. **“Standing committee on finance”** – bu moliyaviy oqimlarning samaradorligi, ehtiyojlar bilan mosligi va shaffofligini ta'minlash uchun mas'ul doimiy tuzilma hisoblanadi. U UNFCCC tizimida mablag'larning monitoringi va baholashini yuritadi.

5. **“Annual finance forum”** – moliyaviy institutlar, xalqaro tashkilotlar va davlat vakillari o'rtasida muntazam muloqot uchun platforma sifatida xizmat qiladi. U orqali moliyalashtirish siyosatlari muvofiqlashtiriladi.

Mazkur tizimlar orqali BMT iqlim konventsiyasi faqat ekologik majburiyatlar emas, balki iqtisodiy va moliyaviy javobgarlikni ham xalqaro huquq doirasiga olib kirgan. Bu, o'z navbatida, iqlim o'zgarishi masalalarini global iqtisodiy strategiyalar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda. Natijada, ekologik moliyalashtirish endilikda alohida yordam shakli emas, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanish siyosatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda³.

Iqlim o'zgarishining global miqyosdagi salbiy oqibatlari tobora chuqurlashib borar ekan, xalqaro hamjamiyat bu muammoni nafaqat texnik yoki siyosiy darajada, balki moliyaviy jihatdan ham yechish zarurligini tan oldi.

³ <https://unfccc.int/standing-committee-on-finance>.

Ayniqsa, rivojlanayotgan va iqlim xavfiga eng ko‘p duch keluvchi davlatlar uchun barqaror va baravar asosda moliyaviy yordamni ta‘minlash asosiy ustuvorlikka aylandi. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, Adaptatsiya jamg‘armasi tashkil etilgan bo‘lib, u iqlim o‘zgarishiga moslashishni bevosita moliyalashtirishga ixtisoslashgan xalqaro moliyaviy tuzilma sifatida maydonga chiqdi⁴.

Adaptatsiya jamg‘armasining tashkil etilish zarurati, avvalo, iqlim o‘zgarishidan eng katta zarar ko‘ruvchi, lekin iqtisodiy va texnologik salohiyati cheklangan davlatlar uchun maxsus moliyaviy mexanizmga ehtiyoj ortgani bilan bog‘liq. Mazkur jamg‘arma iqlimga nisbatan zaif bo‘lgan mamlakatlarda moslashuv choralarini ishlab chiqish, amalga oshirish va monitoring qilishda barqaror, ochiq va adolatli yordam ko‘rsatish maqsadida yo‘lga qo‘yilgan.

AF‘ning huquqiy asoslari BMT Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi asosiy konvensiyasi va unga qo‘shimcha tarzda 1997-yilda qabul qilingan Kioto protokolining 12-moddasiga tayanadi. Ushbu modda rivojlangan davlatlarning rivojlanayotgan davlatlarga iqlim o‘zgarishiga moslashish borasida moliyaviy ko‘mak ko‘rsatishi kerakligini belgilab beradi. Aynan shu huquqiy norma asosida Adaptatsiya jamg‘armasi 2001-yilda BMT Iqlim konferensiyasining qaroriga asosan tashkil etilgan va 2007-yilda to‘liq faoliyat yuritishni boshlagan.

Jamg‘armaning alohida huquqiy jihati shundaki, u dastlab boshqa iqlim fondlaridan farqli ravishda, donor mablag‘lariga to‘liq tayanmagan. Aksincha, uning moliyaviy manbai sifatida Kioto protokoli doirasida amalga oshirilgan “Toza taraqqiyot mexanizmi” asosida to‘plangan tranzaksion daromadlar xizmat qilgan. Ya’ni, rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan hududlarda karbon chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirganida, ularning

⁴ E.Usmonov. Ekologik munosabatlarning globalashuvi. Jamiyat va boshkaruv. Ilmiysiyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy, ma’anviy tarixiy jurnal. Toshkent, 2007, №2, 89-90-bet.

ma'lum foizi avtomatik ravishda Adaptatsiya jamg'armasiga yo'naltirilgan. Bu model, xalqaro huquq doirasida "obligatsiyali soliqqa o'xshash mexanizm" sifatida e'tirof etilib, jamg'armaning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan.

Yana bir huquqiy jihat shundaki, Adaptatsiya jamg'armasi bevosita BMT tizimidagi Global muhit jamg'armasi (GEF)ga emas, balki BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) va BMT Iqlim Kotibiyati bilan bevosita hamkorlikda ishlaydi. Bunday tuzilma jamg'armani mustaqil, byurokratik to'siqlardan holi, va ehtiyojlarga tezkor javob bera oladigan tizim sifatida shakllanishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, jamg'arma mablag'larni bevosita manfaatdor davlatlarning milliy agentliklariga to'g'ridan-to'g'ri ajratadi, bu esa "milliy ijrochilikni kuchaytirish" tamoyiliga mos keladi.

Jamg'armaning normativ bazasi maxsus tuzilgan Adaptatsiya jamg'armasi Boshqaruv kengashi orqali yuritiladi. Boshqaruvda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar teng vakillik asosida ishtirok etadi. Har bir moliyaviy qaror, har bir loyiha baholovdan o'tkaziladi va yakuniy qarorlar ochiq jarayon orqali qabul qilinadi. Bu esa huquqiy jihatdan shaffoflik, adolat va ishtirokchilik tamoyillarini mustahkamlovchi muhim omildir.

Adaptatsiya jamg'armasi hozirgi kunda o'z faoliyatini 100 dan ortiq mamlakatlarda davom ettirmoqda. U orqali moliyalashtirilayotgan loyihalar asosan suv resurslarini boshqarish, qishloq xo'jaligini iqlimga moslashtirish, sog'liqni saqlash tizimlarida barqarorlikni ta'minlash va qirg'oqbo'yi infratuzilmasini mustahkamlashga qaratilgan. Bu faoliyatlar BMT doirasida qabul qilingan "iqlimga mos global rivojlanish" konsepsiyasiga to'liq mos keladi.

Global iqlim o'zgarishi muammosi nafaqat ekologik, balki murakkab iqtisodiy va huquqiy oqibatlarga ega bo'lib, bu muammoga qarshi kurashda moliyaviy mexanizmlarning roli beqiyosdir. Shu bois, Yashil iqlim jamg'armasi (Green Climate Fund – GCF) va Adaptatsiya jamg'armasi (Adaptation Fund – AF) kabi xalqaro moliyaviy tuzilmalar iqlimga moslashish bo'yicha zaif davlatlarga yordam berishning asosiy vositasi sifatida shakllangan. Biroq ushbu fondlarning samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi muammolar hanuzgacha xalqaro miqyosda muhokama markazida qolmoqda. Xususan, moliyalashtirishdagi tenglik, shaffoflik va byurokratik to'siqlar ushbu tizimlarning dolzarb muammolari sifatida ajralib turadi⁵.

Moliyalashtirishdagi tenglik prinsipi nazariy jihatdan rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan ustuvor yondashuvni nazarda tutadi. Ammo amaliyotda mablag'lar ko'proq muayyan geosiyosiy manfaatlar, institutsional salohiyat yoki texnik tayyorgarligi yuqori bo'lgan mamlakatlarga yo'naltirilayotganini ko'rish mumkin. Bu esa iqtisodiy jihatdan qoloq, biroq iqlim xavfiga yuqori darajada duchor bo'lgan orol mamlakatlar yoki Afrika davlatlari uchun mablag'lardan to'liq foydalana olmaslik muammosini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, Yashil iqlim jamg'armasining loyihalarni tasdiqlash jarayonida kiritilgan ko'p bosqichli tekshiruvlar natijasida zaif davlatlar arizalarini texnik jihatdan asoslay olmaslik holatlari tez-tez uchraydi.

Shuningdek, moliyaviy yordamning shaffofligi masalasi ham jiddiy muammolardan biridir. Jamg'armalarning yillik hisobotlari mavjud bo'lsa-da, real mablag'lar ajratilishi, ularning sarf etilishi, monitoringi va audit jarayonlari hamma davlatlar uchun ochiq va teng sharoitda taqdim etilmaydi. Ayrim holatlarda,

⁵ <https://www.greenclimate.fund/>.

jamg'armalar siyosiy jihatdan qulay deb topilgan davlatlarga ustuvorlik berib, boshqalariga tormoz qo'yayotgani kuzatilmoqda. Bu esa xalqaro huquqda tan olingan "klimat adolati" prinsipiga zid holat hisoblanadi.

Bundan tashqari, moliyaviy yordam olish uchun zarur bo'lgan byurokratik mexanizmlar haddan tashqari murakkab va cho'zilgan bo'lib, bu zaif davlatlar uchun qo'shimcha to'siq bo'lmoqda. Masalan, Yashil iqlim jamg'armasidan moliyalashtirish olish uchun talab qilinadigan institutsional akkreditatsiya, ekologik-ijtimoiy xavfsizlik mezonlariga muvofiqlik, shuningdek, korrupsiyaga qarshi choralarni ta'minlash kabi hujjatli talablar ko'pchilik davlatlar tomonidan to'liq bajara olmaydi. Bu holat iqlimga eng ko'p zarar ko'ruvchi guruhlarining moliyaviy resurslardan foydalana olishiga to'sqinlik qilmoqda.

Adaptatsiya jamg'armasining faoliyati esa bu borada nisbatan qulayroq tizimga ega bo'lsa-da, u ham cheklangan resurslar, doimiy ravishda moliyaviy donorlar topishdagi qiyinchiliklar va texnik salohiyat pastligiga duch kelmoqda. Jamg'arma loyihalarni bevosita milliy agentliklarga ajratadi, biroq ularning monitoringi va hisobdorligi xalqaro darajada yagona mezon bilan tartibga solinmagan. Natijada, loyihalarining barqarorligi va natijadorligi haqida aniq va umumlashgan xulosa chiqarish mushkul.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ekologiya huquqi. Darslik. Usmonov M.B., Rustamboyev M.H., Xolmuminov J.T. va boshq. Mas'ul muharrir: M.B. Usmonov. Toshkent: TDYI, 2006. 78-91-b.

2. E.Usmonov. Ekologik munosabatlarning globalashuvi. Jamiyat va

boshqaruv. Ilmiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'anviy tarixiy jurnal. Toshkent, 2007, №2, 89-90-bet.

3. <https://www.greenclimate.fund/>.
4. <https://unfccc.int/standing-committee-on-finance>.
5. <https://unfccc.int/topics/climate-finance/the-big-picture/introduction-to-climate-finance>.